

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UO'K: 170+370+186

EKZISTENSIALIZM – HAYOT FALSAFASI

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ – ФИЛОСОФИЯ ЖИЗНИ

EXISTENTIALISM - PHILOSOPHY OF LIFE

Normatova Dildor Esonalievna 

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasida dotsenti falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ekzistentsializmni inson hayoti, yashash falsafasi va tanglik falsafasi deb atalishi, ekzistentsialistlar o'rganadigan asosiy narsa – bu ma'lum odam hayotining ma'nosi ekanligi falsafiy jihatdan ochib berilgan. XX asrning birinchi yarmida yangicha va o'zgacha ahamiyat kasb etgan ekzistentsializmning mohiyati ilmiy tahlil qilingan.

Аннотация

В этой статье философски раскрывается, что экзистенциализм можно назвать философией человеческой жизни, философией жизни и философией напряжения, что главное, что изучают экзистенциалисты, – это смысл жизни конкретного человека. В первой половине XX века был проведен научный анализ сущности Экзистенциализма, который приобрел новое и особое значение.

Abstract

This article philosophically reveals that existentialism can be called the philosophy of human life, the philosophy of life and the philosophy of tension, that the main thing that existentialists study is the meaning of a particular person's life. In the first half of the 20th century, a scientific analysis of the essence of Existentialism was carried out, which acquired a new and special meaning.

Kalit so'zlar: ekzistentsializm, ijtimoiy ong, mavjudlik, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, ruhiyat, insonparvarlik, tamaddun, ezgulik, borliq.

Ключевые слова: экзистенциализм, общественное сознание, существование, изобразительное искусство, художественная литература, духовность, гуманизм, цивилизация, добродетель, существование.

Key words: existentialism, social consciousness, existence, visual arts, fiction, spirituality, humanism, civilization, virtue, existence.

KIRISH

Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab olib bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan.

Bir qarashda falsafa – bu borliq va inson to'g'risidagi umumiy ta'limot, dunyoqarashning nazariy asosi deyish mumkin. Qadimgi inson o'zining borlig'ini tevarak atrofnig to'xtovsiz o'rganish, tadqiq qilish bilan qo'llab-quvvatlab kelgan. Voqelikni bilish o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida tabiatni o'zgartirish va undan foydalanish imkonini berar edi. Iqtisodiyotda ehtiyojlarning ko'payishi, kengayishi, ularning biri qondirilsa, keyingisi, murakkabrog'i yoki nozikrog'ining paydo bo'lishi to'g'risida qonuniyat mavjud.

Boshqacha qilib aytganda, jamiyat o'z tarixida kimdandir (xususan tabiatdan) xilma-xil in'omlarni kutib tura olmaydi. U o'z bilimlarini orttirib, boyitib, ulardan odamning tabiat ustidan "xo'jayinligini" orttirishga xizmat qiluvchi ashyolarni barpo qilishda foydalanadi. Shu asnodan odamzot toshdan yasalgan oddiy ish qurolidan hozirgi zamonaviy texnika vositalarigacha yetib keldi va bu jarayon davom etaveradi.

Ming yilliklar davomida borliq to'g'risidagi insoniyat erishgan bilimlar majmuasi nimalardan iborat? Birinchidan, bu – kundalik turfa vazifalarni: uy qurilishi, dehqonchilik, hunarmandchilik, mehnat va jang qurollarini tayyorlash va boshqa shu kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan narsalarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi bilimlar. Jahon falsafiy ta'limoti oqimlaridan biri pozitivizm vakillari fanning vazifasi faqat narsalarning xususiyatlari va xossalari, kundalik turmush, jamiyat va tabiatning eng sodda oddiy qonuniyatlarini ifodalash xolos deb hisoblaydilar [1.133.]. Lekin, sivilizatsiya tarixida hech qaysi bir xalq faqat oddiy narsalar va voqealar to'g'risidagi

cheklangan bilimlar bilan qoniqib qolmagan. Ibtidoiy jamiyatdagi bilimning ikkinchi saviyasi - voqelikning umumiy qonuniyatlarini anglashga intilish, to'laqonli dunyoqarashni barpo qilishga harakat qiligan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi zamon ekzistentsializmi (lot.exsistentia – yashash, tiriklik, mavjud bo'lish) yoki hayot falsafasi XIX asr Yevropa intellektual madaniyatining an'alariga suyanadi. Uning ildizlari S.Kerkegor va rus yozuvchisi F.M.Dostoyevskiy falsafiy g'oyalardan boshlanadi. Ilk ekzistentsialistlardan biri – N.A.Berdyayev edi. Lekin bu oqimning yirik vakillari XX asr o'talarida yashab ijod qilgan G'arbiy Yevropa olimlari Germaniyalik Karl Yaspers (1883-1969) va Martin Xaydegger (1889-1976), Frantsiyalik Gabriyel Markes (1889-1973), Jan Pol Sartr (1905-1980) va Alber Kamyu (1903-1960)lardir[2.]. Bir qancha rus olimlari ushbu mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan, jumladan, falsafa fanlari nomzodi Antonets V.A. tomonidan "Традиции экзистенциализма в отечественной культуре второй половины XX века", falsafa fanlari nomzodi Baydachnaya Ye.V. tomonidan "Экзистенциальные основания культуры в философии существования: концептуальный анализ", f.f.n. Федосова У.В. томонидан "Философско-антропологические основания экзистенциальной концепции субъекта" nomli mavzularda dissertatsiyalar himoya qilingan[3.40.].

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ekzistentsializm-hayot falsafasi va tanglik falsafasi deya talqin qilinishi dialektik, tizimli yondoshuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asr so'ngida bu kontsepsiyaning mashhurligi ancha so'ndi, lekin ekzistentsializm g'oyalari endi ijtimoiy ongga chuqur o'rnashdi va siyosatda, zamon kishisi ruhiyatida, adabiyotda va tasviriy san'atda o'zini namoyon qilib turadi.

Ekzistentsializmni inson hayoti, yashash falsafasi va tanglik falsafasi deb ham ataydilar. Unda muqaddam, masalan, nemis mumtoz falsafasiga xos bo'lgan qat'iy mantiqiy fikrlar tizimi yo'q. Ekzistentsialistlar o'rganadigan asosiy narsa – bu ma'lum odamning hayoti ma'nosi XX asrning birinchi yarmida yangichasiga, o'zgacha ahamiyat kashf etdi. Bu aybdorlik va ma'sullik, qaror va tanlash, inson o'zining hayotdagi o'rniga va o'limga munosabati muammolaridir. Bu oqim faylasuflarini tabiiy olam borlig'i emas, hayotiy tanglik, tanazzul holatlaridagi aynan odamning borlig'i qiziqtiradi. Inson qanday bo'lsa shundayicha mavjudligi (o'ziga va boshqalarga qanday tuyulishidan farqli o'laroq) – uning ekzistentsiyasidir. Inson o'zining mavjudligini qandaydir ruhiy holatlar yig'indisi tarzida his qiladi. Taniqli ekzistentsialistlar nuqtai nazaridan bu holatlar majmuasiga qo'rquv, tashvish, qat'iylik, vijdon, aybdorlik, sog'inch, zerikish kiradi. Ekzistentsiya tashqariga, qandaydir tashqi maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan. Inson o'z ekzistentsiyasini "chegaradosh holatlarda", ya'ni chuqur taassurot paytida his qiladi. Aynan shunday paytda inson tabiati o'zini to'liq namoyon qiladi. Bu yerda ekzistentsializm – badiiy adabiyotda, eng avvalo favqulotda holatda, noyob shaxsning fe'l-atvori bilan qiziqadigan yo'nalish – romantizmga o'xshab ketadi.

Pirovardida har qanday falsafa u yoki bu davr jamiyatining g'oyalari va kayfiyatini ifodalaydi. Lekin ekzistentsializm (masalan, marksizm kabi) uni o'z davrining eng o'tkir dolzarb ijtimoiy muammolar qiziqtirishini alohida ta'kidlaydi. XX asrning birinchi yarmida Yevropada bunday dolzarb muammo umuman jamiyatning va, jumladan, inson shaxsining tabiatini yangitdan tushunishga majbur qilgan ikkita Jahon urushlari oqibatlarini va tajribasini qayta mushohada qilish bo'ldi.

Ekzistentsializm mustaqil falsafiy ta'limot sifatida 1920-yillarda shakllandi. Bu ma'rifatparvarlik davridan boshlab Yevropa tamaddunida hukm surgan jahon tarixiga optimistik (porloq kelajakka ishonch) qarashlarning tanazzuliga javob tariqasida vujudga keldi. Birinchi Jahon urushiga qadar ko'pchilik Yevropa va Amerika ahli tamaddun ezgulik sari taraqqiy etadi, jamiyat va shaxs odilroq, insonparvarroq bo'lib boradi deb ishonar edilar.

Birinchi Jahon urushi bu fikrlarni puchga chiqardi. Millionlab odamlarning nohaq qirilib ketishi, jamiyat to'g'risidagi barcha ratsional tasavvurlarning parchalanib ketishiga olib keldi: insoniyat tarixi hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydigan, faqat azob-uqubatga duchor qiladigan, aqlga sig'maydigan irratsional jarayondek tuyula boshladi. Gegelning allaqachon o'zini o'zi o'rganib bilgan va taraqqiyotni nihoyasiga yetkazgan mutlaq g'oyasi go'yoki quturib ketdi va o'zi yaratgan tamaddunni vayron qila boshladi. Markscha mafkura doirasida urushning sabablari va oqibatlarini tarixni materialistik tushunish asosida tushuntirishga harakat qilindi. Bunday yondashishda tarixiy hodisalarni jamiyatda vujudga kelgan ziddiyatlar, sinfiy kurash, va nihoyat, moddiy ishlab chiqarish taraqqiyotining mantiqiy sabablari va oqibatlarini bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilindi. Nemis

FALSAFA

olimi Osvald Shpengler (1880-1936) tarixiy jarayonni boshqa nuqtayi-nazardan tadqiq qildi: "Yevropa oqshomi" kitobida u Yevropa tamaddunini ijodiy bemahsul, qotib qolgan davrga kirib kelayotganini tahlil qilgan. Endi odamlar madaniyatning faqat so'nib boradigan kelajagiga ko'nikishlari zarur dedi. Ekzistentsialistlar hozirgi zamon to'g'risidagi o'z tushunchalarini ishlab chiqdilar. Ularning kontsepsiyasi markazida inson muammosi turardi. 1931-yilda Karl Yaspersning "Davarning ruhiy holati" kitobi chop etildi. Uning nuqtai nazaridan, Birinchi Jahon urushidan keyingi bo'm-bo'shlik hissi madaniyatga loqayd munosabat – tamaddunning insonparvarligiga, oqilligiga, tarixiy jarayonning faqat ezgulik sari yo'nalishiga bolalarcha sodda ishonganlar uchun to'lov, o'ch edi.

Barcha voqelikning aqlga muvofiqligi to'g'risidagi fikr noto'g'ri edi. Tarix insonparvarlik, odillik guvohigina emas, tarix insonga uning nimalarga intilishi kerakligini ko'rsatmaydi, hech qanday doimiy bir axloqiy nishonga ishora qilmaydi. Odam o'z ichki e'tiqodi, vijdoni asosida yashashi va harakat qilishi lozim. Inson u yoki bu olamga, yoki tarixiy holatga o'z ixtiyori bilan "tashlanmagan". Lekin o'zining nimalarga qodir ekanligini, taqdiri to'g'risidagi masalaga kelganda inson og'ir holat, turmush qiyinchiliklari va boshqalar bilan o'zini oqlamasligi kerak. Shuni tushunib olgandan keyingina shaxs umidsizlikka tushmay va befarqlikka berilmay tarixiy kelajak to'g'risidagi har qanday xabar, ma'lumotlarni qabul qilish, tasavvur qilish uchun zarur bo'lgan qat'iylikka erishadi.

Ichki holat "qadriyatlarini qayta baholash" davrida inson shaxsining "o'zi o'zini his qilish" (F.Nitsche iborasi) M.Xaydeger asarlarida davom ettirildi[4.332.]. "Borliq va zamon" kitobida, uning nazarida, Yevropa falsafasi tomonidan yoddan chiqarilgan inson borliqining mohiyati muammosini ko'tardi. Olim insonning "olamda borliqi"ni o'lim sari, yo'qlik sari harakat sifatida ko'rib chiqdi. Odamlarning fe'l-atvoriga ikki xil qo'rquv ta'sir qiladi: biri – hayotiy, o'lim yoki qandaydir bir hayotda zarur narsani yo'qotib qo'yishi; ikkinchisi, ontologik qo'rquv inson hayotda o'zini ham bor narsasini ham ayamay qurbon qilishi mumkin bo'lgan, o'z o'rnini topa olmaslik qo'rquvi. Boshqacha qilib aytganda, inson o'zi o'zining mavjudligi mohiyatini topishga harakat qiladi. Ekzistentsializmning insonga qaratilgan asosiy talabi – "o'zicha bo'lish, o'ziga sodiq bo'lish, o'zini o'zi tanlash".

Ekzistentsializmning falsafasi va axloqi Ikkinchi Jahon urushi davrida gullab yashnadi va fransuz Qarshilik harakatining mafkurasiga aylandi. Fashistlar bosib olgan Yevropadagi siyosiy, ruhiy muhit bu falsafaning mohiyatini anglash imkonini berdi. Fransiya jamiyati bu vaqtda fashizmga qarshi kurashuvchilarga va ular bilan hamkorlik qilishga xayrixoglarga bo'lindi. 1940-1942 yillarda hushyor mulohaza bosqinchilarga qarshi kurash befoyda ekanligini, uning imkoniyati yo'qligini e'tirof etdi. Chunki urushdan avvalroq ham Fransiyaga qaraganda Germaniyaning harbiy kuchi bir necha marta ortiq edi. Sovet armiyasi chekinmoqda edi. Bunday sharoitda fashizm bilan kurashish aqlga bovar kelmas edi, faqat besamar qurbonlar berilardi va mag'lubiyatga uchrashi oldindan ma'lum edi. Shunga qaramay, ko'pchilik fransuzlar kurash yo'lini tanladi, bu esa aqlga sig'mas – "Fransuzlar mantiqiy haqiqatga zid ravishda jangga kirdilar... Axir mag'lubiyatdan qutulish uchun Fransiya nagot jang qilmasa? Unday deb o'ylamayman va Fransiya ziyraklik bilan shunday qarorga keldi; hech qanday pand-nasihat uni kurashdan yuz o'girtira olmadi. Bizning Vatanimizda ruh aqldan kuchlilik qildi" - deb yozgan edi mashhur frantsuz yozuvchisi, harbiy uchuvchi Antuan de Sent – Ekzyuperi. Uning nuqtayi nazaridan hech qanday ishonch yo'q holatda fashizmga qarshi chiqish shuning uchun ham mumkin bo'ldiki, odamlarda aqldan farqli o'laroq yuksakroq ibtido mavjud. Bu o'sha ekzistentsialistlar aytgan hayotiy ishonch yoki ekzistentsiyadir. Axloqiy burchi, olamda yuz berayotgan barcha hodisalar uchun mas'uliyat g'oyasi Ekzyuperining 1942-1943-yillarda kattalar uchun yozgan "Harbiy uchuvchi", "Tutqunga xat" kitoblaridagina emas, bolalar uchun yozilgan 1943-yilda chop etilgan "Mitti shahzoda" ertagida ham olg'a surilgan.

Ekzyuperi badiiy asarlari bilan bir qatorda Alber Kamyu va Jan Pol Sartr falsafiy asarlarida ham ma'naviy mas'uliyat, nohaqlikka qarshi insyonkorlik hissi muammolari tahlil qilingan. Nemis fashistlari bosqini va davlatning barcha hayotiy ustunlari qulayotgan bir sharoitda mantiq, tabiat falsafasi kabi mavhum masalalarni muhokama qilishni ular o'zlariga ep ko'rmadilar va diqqat-e'tiborlarini inson hayotining mohiyatiga qaratdilar. "Faqat bitta haqiqiy jiddiy falsafiy masala mavjud, u ham bo'lsa – o'z-o'zini o'ldirishdir" - deb yozadi A.Kamyu o'zining "Sizif to'g'risidagi afsona", "Bema'nilik to'g'risida Esse" asarida (1942), (Sizif – qadimgi Yunon afsonalaridan birining qahramoni. U o'z gunohlari uchun xudolarining xohishi bilan og'ir toshni tog'ning cho'qqisiga olib chiqishga buyurilgan. Lekin u cho'qqiga yetay deganda har safar tosh uning qo'lidan chiqib pastga

dumalar, Sizif esa abadiy shu befoyda, bema'ni, befoyda og'ir ish bilan shug'ullanadi. Bu yerda aynan shu narsa nazarda tutilmoqda[5.106].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umr yashashga arziydimi yoki shunchalik og'ir azob-uqubat bilan umrguzaronlik bunga arziydimi? Bu savolga javob topish falsafaning asosiy muammosiga javob topish demakdir. Barcha boshqa masalalar, - olam uch o'lchovlimi yoki yo'qmi, ruhning kategoriyalari to'qqiztami yoki o'n ikkitadan iboratmi degan savollar shu asosiy savoldan ortda turadi. Bular hammasi oddiy o'yin, avvalambor, eng muhimi ilk savolga javob berish zarur. Salmoqli ilmiy haqiqat sohibi Galileo Galiley uning hayotiga xavf solinganda osonlik bilan undan (haqiqatdan) voz kechdi. U qandaydir bir ma'noda to'g'ri qildi. U bilgan haqiqat uning gulxanda yonishiga arziyas edi. Yer Quyosh atrofida aylanadimi, yoki Quyosh Yer atrofidami – hech qanday farqi yo'q.

Haq gapni aytganda, bu masala asti mushohada qilishga arziydigan masala emas. Lekin umr yashashga arzimaydi degan ishonchi paydo bo'lgan qanchadan-qancha odamlar o'lib ketayotganlarini ko'ryapman. Hayotlarining mazmunini tashkil qilayotgan g'oya, isbotlanmagan tasavvur uchun kutilmaganda o'lib ketayotgan kishilarni ham ko'ryapman (o'sha, hayot mazmuni deb atalmish, bir vaqtning o'zida o'limning ham mazmunidir). Demak, men hayot mazmuni eng dolzarb masala, degan xulosaga kelaman.

O'z vaqtida Kьerkegor Gegelning barcha voqelik oqillikdandir, degan xulosasini tanqid qilgan edi. Kamyu bu fikrni shiddatli va berahm XX asr sharoitida yanada rivojlantirdi. Olam uning nuqtayi nazaridan, aqlsizlarcha sukunatda. Uning zamirida insonga na topshiriq va na talab bor, na uning xatti-harakatlarini oqlaydi va na insonning taqdiri to'g'risidagi savolga javob beradi. Olamning oqil ekani, uning insonga xayrixohligi to'g'risidagi isbotlanmagan tasavvur pirovard natijada jazoga – olamning oqilligiga bo'lgan ixlosdan qaytishga, umidsizlikka, o'zini o'zi o'ldirishga olib keladi. Olamning ma'nosi bor degan xulosaga odam o'zi kela oladi xolos. Bu ma'no, mazmun tevarakatrofning bema'nologli, (bema'niligiga) bemazmunligiga qarshi isyonadir (bunda frantsuz qarshilik harakatining g'oyaviy asoslanayotgani ko'rinib turibdi).

Tabiat va ijtimoiy tarix oqillik bilan birika olmaydi, obyektiv olamning oqilligi to'g'risidagi xom xayol inson ruhiy erkinligining yo'qolishiga olib keladi. Bunga esa ongimiz va irodamizning mazmun-ma'noga ega bo'lmagan hayotga qarama-qarshi qo'yish orqali erishiladi. Turmushning, borliqning bema'ni (ma'nosiz)ligiga qarshi isyonkor odam – vayronkor emas. Aksincha, u o'z sa'y-harakati bilan shu parokanda voqelikka qandaydir ma'no-mazmun, muvofiqlik baxsh etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Из философского наследия народов Востока. - Т.: Фан, 1972. P.133-135.
2. Normatova D. IX-XII asrlarda Sharq Uyg'oniш davrinинg falsafий va axloқий хусусияtlari. Journal of innovations in Social Sciences. 03/March-2023
3. Normatova D. Дин – маъnavий қадрияt сифатида. Research Focus 1(1) 40-45, 2022
4. Normatova D. Абу Райхон Беруний қарашларида шахс ва жамияt муносабатларининг ёритилиши. Общество и инновации. 3(4/S), 528-583. Т. 2022
5. Normatova D. Тасаввуф ғоясининг ёйилиши ва уларнинг маъnavий-ахлоқий аҳамияti. Gospodarka i Innowacje. 33, 332-326, 2023
6. Фан ва унинг қонунлари тўғрисида олий илмнинг янгилиниши. //Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. -Т.: Фан, 1959. P.106
7. Ибн Сино. Даниш-намэ. –Душанбе, Таджгосиздат,1957. P. 217.
8. Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний // Мутафаккирлар ахлоқ ва адолат ҳақида. -Т. Адолат, 1995. P.30. Таржимон Х.Алиқулов
9. Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний. Конпур. 1904, P.31
10. Normatova D.E. Peculiarities of antropocentrizm and humanism of the socio-philosophical thought of western Europe in the Era of renaissance //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 5. – P. 168-173.
11. Normatova D.E. The social and moral views of Michelle Eckhem de Monten //Scientific Bulletin of Namangan State University. 2019.Т. 1. №. 10. P. 184-187.
12. Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний. Конпур. 1904, P.31
13. Normatova, D. E. (2021). Attitudes Towards Moral Heritage In The History Of Central Asia. Oriental Journal Of Social Sciences, 11-16.
14. Normatova, D. (2022). Methods, Factors And Directions Of Moral Education. International Journal Of Culture And Modernity, 14, 86-91.
15. Normatova, D. (2021). Issues Of Man And Humanism In Renaissance Literature And Art In Europe. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal.
16. Normatova,D/(2022). Revealing morality in the lives of people in the East *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)*
17. Николай Кун. Легенды, мифы Древней Греции.